O'ZBYeKISTON RYeSPUBLIKASI
OLIYTA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI

Ro'yxatga olindi: № BD-60220300 2024-yil "29" 28	**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024-yil "__" _____

MEDIYA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220300 – Tarix

Fan/modul kodi MAM1205	O'quv yili 2024-2025	Semestr II	ECTS – Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
	Mediya savodxonlik va axbarot madaniyati	48	72	120

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** "Media savodxonlik va axborot madaniyati" fanini o'qitishdan maqsad, dunyo axborot maydonida shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ilm fanning rivoji uchun har bir soha mutaxassisi xususan, talabalar bu sohaning ijobiy jixatlarini o'zlashtirgan xolda kelgusi faoliyatida axborot texnologiyalardan o'rinli foydalanish va ilmiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish. Talabalarga bugungi kundagi zamonaviy axborot makoniga poydevor bo'lgan, inson ijtimoiy-madaniy hayotining ajralmas qismi hisoblangan muloqot, ma'lumot evolusiyasi tarixini o'rgatish, ko'nikmasini shakllantirish, refleksiv fikrlay olish, murakkab vaziyatlarda konstruktiv mantiqiy xulosa chiqara olish qobiliyatini hosil qilish, kasbiy yo'nalganlikda global axborot makonida qabul qilinayotgan axborotlarni tushunish, baxolash, tanqidiy tafakkurni shakllantirish fanning umummetodologik ko'nikmalaridan foydalana olish xususiyatini tarbiyalay oladigan bilimlarga ega bo'lish jarayonlarini o'rganish. **Fanning vazifasi**: Ommaviy axborot vositalari va media makonga xos: "raqamli", " kompyuter", "vizual", "texnologik", "kommunikatsion", "media", "axborot", "ommaviy madaniyat" va "texnokratiya" kabi tushunchalarni yoshlarga mazmuni, maqsad va vazifalarini anglagan xolda foydalanish madaniyatini va fikrlash ko'nikma va malakasini shakllantirish. Talabalarda fanni o'qish natijasida: ma'lumot, axborot tushunchalari evolyusiya va tarixiyligi; media va axborot madaniyati savodxonligining asosiy elementlari; axborot manbalari, yoshlarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish; media savodxonlik va axborot madaniyati haqida ko'nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**1-mavzu. "Mediya savodxonlik va axbarot madaniyati" fani predmeti va mazmuni**
	Mediata'lim ommaviy kommunikatsiyalarni o'rganishga yo'naltirilgan. Mediata'limning asosiy yo'nalishlari. Mediata'lim - tanqidiy fikrlash. Mediata'lim – mediani o'rganish. Demokratik va globallashuv jarayonida muhim ahamiyatga ega. Mediamatn manbasini aniqlash, uning mohiyatini anglash, mediamahsulotishlab chiqarish.
M2	**2-mavzu: Axborotni jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati (4 soat)**
	Axborotlashgan jamiyat tushunchasi, mazmun - mohiyati. Xabar, ma'lumot, bitim va shartnomalar. Ommaviy axborot vositalari: gazeta va jurnallar. Axborot-inson hayotining ajralmas qismi. Axborot turlari: ijtimoiy va madaniy turmush, jamiyat siyosiy va iqtisodiy jarayonlar bilan uzviyligi. San'at, sport va ma'naviy hayot. Axborotning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati. Axborot oqimi va axborot madaniyatining shakllanish tendentsiyalari. Medialarning qadriyatlarga tayanishi va ularning tarbiyaviy ahamiyati. Axborotlarning shaxs his-tuyg'ularga ta'sir muammolari. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy ta'sir kuchi. Media qadriyatlar. Axborotning ijtimoiy qatlamga ta'siri. Yangi O'zbekistonda fuqarolarning faollashuvida media va axborotni ahamiyati. Ommaviy axborot vositalarida axborot, ma'lumot (matn) lar bilan ishlash va uning ommaga ta'sirini belgilash. Axborotda adolat va xolislik printsiplari
M3	**3-mavzu: Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti (2 soat)**
	Bosma va ommaviy axborot vositalari: Gazeta, jurnal, radio, televidenie va internet jurnalistikasida o'zaro raqobat muhiti. Aholining axborotga bo'lgan ehtiyoji. Davlat va xususiy bosma nashr va ommaviy axborot vositalarida raqobat muxiti. Matbuotda so'z va axborot olish erkinligi. Matbuot va ommaviy nashrlarda raqobat. Bloger va vaynerda kasbiy etiket. Axborot daromad manbaiga aylanishi. Axborotning inson ongiga ta'sir muammolari. Kasbiy etiket va etikasi.
M4	**4-mavzu: Xorijiy ommaviy axborot vositalarini media zamondagi o'rni (2 soat)**
	Bosma nashr: "The Times", "New Times", "Bloomberg", "Sabah". Radio: "Exa Moskvы", "TRT" va "Amerika ovozi" teleradio-kompaniyalarining axborotlari taxlili. T.Livettning "Garverd biznes rev'yu" maqolasi xaqida. Kenichi Omasning "Chegarasiz dunyo" asarining globallashuvdagi ahamiyati. "Olomoncha madaniyat" oqibatlari. Xozirgi globallashuv integratsiyalashuv, axborotlashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot oqibatining inson omiliga ta'siri muammolari. Jaxon axborot tarmog'ida fitna va ma'naviy xurujlar va ularning oqibatlari.
M5	**5-mavzu: Media maydon tuzilishi va ta'siri (2 soat)**
	Axborotlashgan jamiyat va media maydon tushunchasi. Uzviyligi va uning o'ziga xususiyatlari. Media maydonning shaxs va jamiyatdagi o'rni va ahamiyati. Media axborot yaratish va uni taxlili. Media axborot (matn) tahlili va uni baholash madaniyati. Media madaniyat. Media ta'lim. Global tarmoqlarning zamonaviy iskanjalari. Internet tarmoqlarining vujudga kelishi va maqsadi: "Odnoklassniki", "Telegram" "Fasebook", "Instagram", "Whatsapp" "Tik tok", "Youtube", "Twitter", "go-gulf.com", "Linkedn".

M6	**6-mavzu: Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va taxdidlar (4 soat)**
	Ijtimoiy tarmoq tushunchasi va uning mohiyati. Ijtimoiy tarmoqning axborot maydoniga aylanishi. An'anaviy OAV o'rnini ijtimoiy tarmoqlar egallashi. Ijtimoiy tarmoqlarning jozibadorligi va yoshlarni o'ziga jalb etishi. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar. Video, musiqa va manbalar. Oila kushandasi. Ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi. "Odnoklassniki", "Telegram" "Fasebook", "Instagram", "Whatsapp" "Tik tok", "Youtube", "Twitter", "go gulf.com", "Linkedn". Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga ta'sir muammolari. Ijtimoiy tarmoq – bu ommaviy madaniyatning omili sifatida. Ijtimoiy tarmoqlarda madaniy transformatsiya, integratsiya va diffuziya. Ijtimoiy tarmoqda axborot almashinuvi printsipini aniqlash va tizimli tadqiq va taxlil etish. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga funktsional bog'liqligi.
M7	**7-mavzu: Media maydonda axborot tarqatish madaniyati (2 soat)**
	Axborot maydonida ahloq va shaxs tushunchasi. Axborotning ong va
	tafakkurga ruhiy ta'sir muammolari. Internet, virtual va vizual olamning shaxsga ta'siri. "Kazino", "sport o'yinlari", "karta o'yini". Vizual olamning
	ommaviyligi va jozibadorligi. Media maydonda vizual jozibadorlikning shaxs tasavvurida namoyon bo'lishi. Vizual olamda muloqot, sevgi va nikoh munosabatlari. Vizual kontentning ommaviyligi va ta'sir muammolari. Axborot almashinuvining mexanizmlari va ilmiy nazariy asoslari. Axborot almashinuvining madaniy-sotsial xolati va ahamiyati.
M8	**8-mavzu: Shaxsga yo'naltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy taxdidlar (2 soat)**
	Axborotning shaxs va jamiyatga yo'naltirilganligi. Etnik, milliy, va mintaqaviy muammolarga yo'naltirilgan psixologik, diniy va madaniy taxdidlar. Milliy nizo turlari va taxdidlar Axborot tizimida "falsifikatsiya metodi" (feyk)dan foydalanish. Axborot manbalaridan foydalanishda shaxs madaniyatini takomili. Ko'pmillatli jamiyatda tolerantlik, bag'rikenglik g'oyalariga tajovuz va taxdidlar. Hozirgi dunyoda terrorizm, ekstremizm va diniy tahdidlar: moslashuv va mafkuraviy kurash. Axborot almashinuvining regulyativ funktsiyasi, xavf-xatar va tahdidlar. Axborot almashinuvida mikro, mezo, makro darajalari. Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka taxdid soluvchi: milliy, mafkuraviy va axborot xurujlarini bartaraf etishning zamonaviy mexanizm va texnologiyalari.
M9	**9-mavzu: Axborot xavfsizligini ta'minlashning g'oyaviy-nazariy asoslari (2 soat)**

	Yoshlarda media maydon, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish. Bu vositalarga qaramlik emas balki, yoshlarda to'g'ri foydalanish tushunchasini shakllantirish. Axborot manbalariga qiyosiy va tanqidiy yondashuv. Inkorni inkor qonunini media savodxonlik va axborot madaniyatida namoyon bo'lishi. Internet tarmog'idagi milliy segmentlar va axborot xavfsizligining nazariy-metodologik asoslari. Ta'limda media savodxonlik va axborot mada-niyatini qo'llash metodlari. Axborot xurujlari: etnik, irqiy, milliy, mintaqaviy, diniy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan kamsitishni targ'ib etuvchi manbalarga nisbatan mantiqiy, psixologik hamda huquqiy yondashish.
M10	**10-mavzu: O'zbekistonda axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy asoslari (2 soat)**
	Axborot almashinuvining milliy – mental, yosh, jins va hayotiy tajriba hamda ijtimoiy xususiyatlari. Yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik, ma'naviy va ruhiy zo'ravonlik. Milliy qonunchilikda axborot xurujlari. Davlat siri, qonun bilan qo'riqlanadigan sirlar. Fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmati va obro'siga nisbatan dahl qilish. Giyohvandlik vositalari, psixotrop modda va prekursorlarni targ'ib qiluvchi saytlarga taqiq qilish xaqida ma'lumot berish. Prezident asarlari, farmonlari, xukumat qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida media savod-xonligi va axborot madaniyatini himoyalanishi. Xalqaro normalarda axboriy himoya. BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi. "Terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi" kurash bo'yicha ShXT konsepsiyasi.
M11	**11-mavzu. Virtual o'yinlarning yoshlar ongiga ta'siri (4 soat)**
	Komp'yuterga tobelikning to'rt bosqichi: moslashish, odatlanish, shaxsiy omillarga ta'siri, inson hayotining ajralmas bo'lagi sifatida. Internet va komp'yuter o'yinlarining paydo bo'lishi.Virtual tanishuvlar. Virtual o'yinlar –yoshlar tafakkuri va dunyoqarashiga ta'siri. Virtual olam va manipulyatsiya. Komp'yuter o'yinlarining ruhiy va jismoniy xatarlari. Virtual olamda o'zlikni namoyon qilish–"qaxramon"lik. Zo'ravonlik, faxsh va shafqatsizlikka undovchi o'yinlar: "Pubj", "Minecraft", "gta", "counter-strike", "Ever Quest", "Manhunt", Hilmiy Xidir Soriy "internet orqali bog'lanishning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri" bo'yicha sosial so'rovi.
M12	**12-mavzu: Media maydon va internet imkoniyatlari (2 soat)**
	Xozirgi kunda axborot texnologiyalari taraqqiyoti. Ijtimoiy tarmoqlar. Forumlar. Blogerlar. Vikilar. Elektron tijorat, auksion, magazin va to'lovlar. Yangiliklar guruxi

	(Usenet). Internet-radio, televidenie (IPTV) va telefon (IP). Veb-chatlar (IRC) va reklama.
M13	**13-mavzu. Axborot xavfsizligini ta'minlashda davlat siyosatining ahamiyati**
	Axborot xavfsizligini ta'minlashda davlat siyosati. Axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlar. Shaxs, jamiyat, davlatning axborot xavfsizligi sohasidagi asosiy vazifalari. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlarining axborot xavfsizligi borasida o'rni va ahamiyati.
M14	**14-mavzu. Shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligi borasidagi vazifalari**
	Shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi, axborotdan erkin foydalanish sharoitlari va kafolatlari. Shaxsiy hayotiga aloqador sirlar. Axborot vositasida ruhiy ta'sirdan himoya. Demokratik fuqarolik jamiyati asoslari rivojlantirilishi, OAV erkinligini ta'minlash. Ijtimoiy ongga axborot vositasida ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'ymaslik. Davlatning axborot sohasidagi xavfsizlikka, tahdidlarga qarshi iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari.
M15	**15-mavzu. Ijtimoiy tarmoqlarning axborot sohasidagi xavfsizlikka tahdidi**
	Talabalar soxta ma'lumotlarni tarqatuvchi, tashviqot tusidagi va virus kontentlarni tarqatuvchi, shu orqali demokratik jamiyatlardagi siyosiy, ijtimoiy hayotga ta'sir ko'rsatuvchi raqamli platformalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'proq his etadi. Chalg'ituvchi va yolg'on ma'lumot tashuvchi kontent. Axborot buzilishining uch ta shakli: dezinformatsiya, axborotning noto'liqligi, aniq ma'lumot.
III.Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
A1	Media savodxonlik va axborot madaniyatining tadrijiyligi hamda jamiyatdagi ahamiyati
A2	Mediata'limning asosiy yo'nalishlari.
A3	Media – insonning ruhiy dunyosi sifatida.
A4	Xorijiy ommaviy axborot vositalarini media zamondagi o'rni
A5	O'zbekistonda umumiy mediya ta'limning o'rni va tavsifi
A6	Mediasavodxonlikni oshirishda kutubxonalarning ahamiyati
A7	Media sohasida moddiy va intellektual qadriyatlar yig'indisi
A8	Shaxsga yo'naltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy taxdidlar
A9	Mediasavodxonlik va axbarot erkinligi

A10	O'zbekistonda axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy asoslari
A11	Media maydon va internet imkoniyatlari
A12	Media maydon va internet imkoniyatlari

IV.**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Mediyasavodxonlik va axbarot madaniyati" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Mediata'limning jahon ta'lim tizimida tutgan o'rni.
2.	Metasavodxonlikning maqsad va vazifalari.
3.	Chegarasiz axborot almashinuvi sharoitida mediata'lim, media savodxonlikning ahamiyati.
4.	Post-haqiqat (post-haqiqat) davri va axborot ishonchliligi masalalari.
5.	Axborotning buzulishi va geosiyosiy manfaatlar.
6.	Ijtimoiy tarmoqlardagi mediaekologiyani barqarorlashtirish chora-tadbirlari.
7.	Netiket.
8.	"Mediasavodxonlik", "Axboriy savodxonlik", "Vizual savodxonlik"ning o'ziga xosliklari.
9.	Raqamli agressiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari.
10.	Raqamli agressiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari.
11.	YuNYeSKO va mediata'lim.
12.	Global va milliy segmentda tarqatilayotgan axborotlarni tekshirishning zamonaviy usullari.
13.	Mediata'lim uzluksiz ta'limga kiritilishi.
14.	Dunyo mamlakatlaridagi mediata'lim taraqqiyoti.
15.	Axborot manbalari nomarkazlashuvi ta'sirida dezinformatsiyalarning ko'payishi
16.	Jamiyatning siyosiy qutblanish va yolg'on axborotlarning ko'payish sabablari
17.	OAVning istalgan turida axborotlarni fakt-analiz qilish
18.	Yopiq axborot manbalari bilan ishlash.
19.	Yolg'on axborotlarni identifikatsiyalash metodlari
20.	Faktlar ham sub'ektiv bo'la oladimi?
21.	Axborot manbalarini oshkor yetmaslik holatlari.
22.	O'zbekistonda mediasavodxonlikni joriy yetish chora-tadbirlari.
23.	Reklama materiallarini tahlil qilish.
24.	Zamonaviy mediaodatlar.
25.	Kiberxavfsizlik qoidalari.
26.	Mediadan ratsional foydalanish.
27.	Diniy mavzudagi mediamahsulotlarni mediasavodxonlik rakursida tahlil qilish.
28.	Siyosiy mavzudagi mediamahsulotlarni mediasavodxonlik rakursida tahlil qilish.
29.	Axboriy makonda manfaatlar to'qnashuvi.

30.	Raqamli ijodkorlik.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • "Mediyasavodxonlik va axbarot madaniyati" fanidan talabalar, zamonaviy axbarot olamida tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Talaba "Mediyasavodxonlik va axbarot madaniyati" fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun Mediya ta'limning dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***. • Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan mediya savodxonligini, tajribani ilmiy va pedagogic amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • Ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axbarot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Namazov B, Fayziyeva M, Sharofiddinov Sh. Mediya va axborot savodxonligi. Toshkent. Baktia priss. 2018-y
2. Muminov F.A., Nurmatov A. Jahon jurnalistikasi tarixi. Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2006-y

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Ixtisoslashgan jurnalistika. (ilmiy-ommabop nashr), J.9, –T., "O'zbekiston" NMIU., 2019. -784 b.
4. Muratova N., Grizl E., Mirzaxmedova. Jurnalistikada media va axborot savodxonligi. Toshkent: Baktria press, 2019.– 112 b
5. Mamatova Yo. Sulaymonova S. O'zbekistonda mediata'lim istiqbollari. – Toshkent. 2013.
6. Zemlyanova L.M. Zarubejnaya kommunikativistika v preddverii informatsionnogo obuestva. M.: Izd – vo Mosk. un-ta. 2001.
7. Imazarov K.T. va b. Hozirgi zamon jurnalistikasi. – T.: O'zMU, 2008.

6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 29 b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017. – 485 b.

8. Mamatova Ya.M. va b. Sovremennaya jurnalistika. T.: MRS, 2006.

9. Nesterenko F.P. va b. Lug'at - ma'lumotnoma: jurnalistika, reklama, pablik rileyshnz. T.: Zar qalam. 2003.

10. Bekmurodov M. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, 2003.

12. Mixaylov S.A. Sovremennaya zarubejnaya jurnalistika: pravila i paradoksы. Uchebnoye posobiye. SPb: Izd-vo Mixaylova V.A., 2002.

13. Nazarov M.M. Massovaya kommunikatsiya v sovremennom mire. M.: «Yeditorial URSS», 2003. 240 s.

14. Proxorov Ye.P. Vvedeniye v teoriyu jurnalistiki: Uchebnoye posobiye. M.: Izd. Rip-xolding, 2002 g.

Internet saytlari

2. http://www.zerkalo-nedeli.com
3. http://www.pravoedelo.spb.ru
4. vitaweb.jino-net.ru.
5. www.journalism.ru
6. www.mediasprut.ru/public/internet
7. www.telemultimedia.ru
8. http://www.medialaw.ru/
9. http://www.internetworldstats.com

.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024-yil "24" avgustdagidagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** **Rahimqulov G'.**– Sharof Rashidov nomidagi SamDU, filologiya fakulteti dotsenti.
.	**Taqrizchilar:** **Umurova G.H.** –SamDCHTI o'zbek va jahon adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya

	fanlari doktori, professor. **Sirojjiddin Xo'jaqulov** – Tojik filologiyasi va xorijiy sharq tillari kafedrasi mudiri, dots., f.f.d. (tel:(93)4164149).

Universitetning 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – **Nasirov A.N**

Kafedra mudirlari: **Sh.Hasanov**

Fakultet dekani: **J.D.Eltazarov**

Sh.Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **A.S.Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti 60230100- filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili 1-kurs talabalari uchun tuzilgan "Mediasavodxonlik va axbarot madaniyati" o'quv dasturiga yozilgan

TAQRIZ

"Media savodxonlik va axborot madaniyati" fanini o'qitish yshlar tarbiyasida muhim vazifa bajaradi. Mazkur fan dunyo axbarot maydonida shakllanib borayatgan yoshlarning intellectual faolitiga tezkor ta'sir qiladi. Darhaqiqat talabalar ushbu sohaning ijobiy xislatlarini o'zlashtiradi hamda kelgusi faoliyatlarida axborot texnologiyalaridan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi. Axbarot maydonida o'zlarining ilmiy savodxonligi, internetdan foydalanish madaniyatini ozlashtiradilar.

Fan dasturi shunday dolzarb muammolarni yechishga xizmat qiladi. Dastur muallifi matematika, tarix, geografiya, kimyo mutaxassislariga mo'ljallangan mavzular tanlshda izchillikka harakat qilgan. Samarqand davlat universitetida bu fan ilk mashg'ulot sifatida joriy qilinishi adabiyotlar tanlashda, slaydlar tayyorlashda ba'zi muammolarni keltirib chiqaradi. O'ylaymanki, professor-o'qituvchilar bu kamchiliklarni bartaraf etadi.

Ma'ruza mashg'ulotlari yo'nalishlariga qarab 20-30 soat oralig'ida, amaliyot mashg'ulotlari shunday soat miqdorini tashkil qiladi. Mustaqil ishlar ham davr talabidan kelib chiqib ma'ruza va amaliyot mavzulariga mos ravishda tuzilgan.

Bildirilgan fikrlardan xulosa qilib aytishim mumkinki, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan mazkur o'quv dasturiga qo'yiladigan talablarga javob beradi va uni bakalavr yo'nalishi uchun yozilgan "Mediasavodxonlik va axbarot madaniyati" fanidan o'quv dasturini tarix, geografiya, matematika, kimyo ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Xo'jaqulov S. Tojik filologiyasi va xorijiy Sharq tillari kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti 60230100 -filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili 1-kurs talabalari uchun tuzilgan "Media savodxonlik va axbarot madaniyati" o'quv dasturiga yozilgan

TAQRIZ

Bugungi kunda "Media savodxonlik va axborot madaniyati" fanini o'qitish dolzarbligi kun tartibiga chiqmoqda. Fanning o'qitishdan maqsad, dunyo axborot maydonida shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ilm fanning rivoji uchun har bir soha mutaxassisi xususan, talabalar bu sohaning ijobiy jixatlarini o'zlashtirgan holda kelgusi faoliyatida axborot texnologiyalardan o'rinli foydalanish va ilmiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradilar. Talabalarda bugungi kundagi zamonaviy axborot makoniga poydevor bo'lgan, inson ijtimoiy-madaniy hayotining ajralmas qismi hisoblangan muloqot, ma'lumot evolutsiyasi tarixini o'rgatish, ko'nikmasini shakllantirish, refleksiv fikrlay olish, murakkab vaziyatlarda konstruktiv mantiqiy xulosa chiqara olish qobiliyatini hosil qiladi.

Mazkur fan dasturi shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Dastur muallifi matematika, tarix, geografiya, kimyo mutaxassislariga mo'ljallangan mavzular tanlshda izchillikka harakat qilgan. Samarqand davlat universitetida bu fan birinchi marta o'tilayotganligi bois kamchiliklardan ham xoli emas. Keyingi davr mobaynida , talabalar bilan muloqot davomida bu fan shakllantirilib boriladi.

Ma'ruza mashg'ulotlari yo'nalishlariga qarab 20-30 soat oralig'ida, amaliyot mashg'ulotlari shunday soat miqdorini tashkil qiladi. Mustaqil ishlar ham davr talabidan kelib chiqib ma'ruza va amaliyot mavzulariga mos ravishda tuzilgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan bunday o'quv dasturiga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni bakalavr yo'nalishi uchun yozilgan "Mediasavodxonlik va axbarot madaniyati" fanidan o'quv dasturini ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Umurova G.H. SamDCHTI rus filologiyasi

Kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

XODIMLAR BO'LIMI

IMZOSINI TASDIQLAYMAN SamDCHTI KADRLAR